

Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

Yanvar-dekabr
2018 yil


E'tibor bering!

- 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **73,4 %**ni tashkil etdi.
- **3,1** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) **11,9** birlikni tashkil qildi.

2018 yil yanvar-dekabrida 3131 ta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 655 taga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar sanoatda (27,2 %), savdoda (23,9 %), qurilishda (14,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (12,0 %) , qishloq va o'rmon xo'jaligida (8,0 %), boshqa tarmoqlarda (7,7%) va yuklash va saqlashda (7,0 %) ni tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2017 y.	2018 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlik	20342	22560	2218
Yangi tashkil etilgan kichik korhona va mikrofirmalar	birlik	2476	3131	655
YalM	%	79,9	73,4	-6,5
Sanoat	%	33,6	27,2	-6,5
Savdo	%	23,2	23,9	0,7
Qurilish	%	9,2	14,2	0,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	9,4	8,0	-1,4
Tashish va saqlash	%	6,0	7,0	1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	%	3,5	5,3	1,8
Yashash va ovqatlanish	%	4,4	4,7	0,3
Aloqa va axborot	%	2,5	2,0	-0,5
Boshqa xizmatlar	%	8,1	7,7	-0,4


**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona
va mikrofirmalar**

(birlikda)

Hududlar	yanvar-dekabr 2017 y.	yanvar-dekabr 2018 y.
Andijon viloyati	2476	3131
Andijon shahri	797	983
Xonobod shahri	36	81
Oltinko'l tumani	147	175
Andijon tumani	149	209
Baliqchi tumani	137	123
Bo'z tumani	64	97
Buloqboshi tumani	70	82
Jalaquduq tumani	76	100
Izboskan tumani	110	179
Ulug'nor tumani	56	65
Qo'rg'ontepa tumani	85	183
Asaka tumani	275	273
Marhamat tumani	110	147
Shahrixon tumani	187	194
Paxtaobod tumani	81	125
Xo'jaobod tumani	96	115

2018 yilda yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Andijon shahrida - 983 ta, Andijon tumanida - 209 ta, Shahrixon tumanida - 194 ta. Qo'rg'ontepa tumani - 183 ta, Izboskan tumani - 179 ta, Oltinko'l tumani - 175 ta. Marhamat tumani - 147 ta, Paxtaobod tumani - 125 ta, Baliqchi - 123 ta, Xo'jaobod tumanida - 115 tani tashkil etgan.

**2018 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi**



2018 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon sh.da - 31,4 %, Asaka tumani - 8,7 %, Andijon tumani - 6,7 %, Shahrixon tumani - 6,2 %, Qo'rg'ontepa tumani - 5,8 %, Izboskan tumani 5,7 %, Oltinko'l tumani - 5,6 %, Marhamat tumani - 4,7 %, Paxtaobod tumani - 4,0 %, Baliqchi tumani - 3,9 %, Xo'jaobod tumani - 3,7 %, Jalaquduq tumani - 3,2 %, Bo'z tumani - 3,1 %, Buloqboshi tumani va Xonobod shahri - 2,6 % eng past ko'rsatkich Ulug'nor tumanida - 2,1 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-dekabr 2017 y.	yanvar-dekabr 2018 y.
Jami	2476	3131
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	232	251
Sanoat	832	853
Qurilish	229	445
Savdo	574	747
Tashish va saqlash	150	220
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	110	147
Axborot va aloqa	63	62
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	86	165
Boshqa turdagi xizmatlar	200	241

2018 yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p sanoatda 853 ta, shuningdek :


Savdoda - 747 ta.;

Sanoatda - 853 ta.;

Qurilishda - 445 ta.;

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 251 ta.;

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risida ma'lumot



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar sanoatda - 853 ta, Savdoda - 747 ta, Qurilishda - 445 ta, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 251 ta, Tashish va saqlashda - 220 ta, Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda - 165 ta, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 147 ta, Axborot va aloqada hamda boshqa turdagi xizmatlarda - 303 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

birlikda


	yanvar-dekabr 2018 y.	yanvar-dekabr 2017 y.	farq (+/-)
Andijon shahri	983	797	186
Asaka tumani	273	275	-2
Andijon tumani	209	149	60
Shahrixon tumani	194	187	7
Qo'rg'ontepa tumani	183	85	98
Izboskan tumani	179	110	69
Oltinko'l tumani	175	147	28
Marhamat tumani	147	110	37
Paxtaobod tumani	125	81	44
Baliqchi tumani	123	137	-14

2018 yil yanvar-dekabrida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Andijon shahrida – 983 ta., Asaka tumanida - 273 ta, Andijon tumanida - 358 ta. Shahrixon tumanida bu ko'rsatkich 194 ta ni tashkil etdi, Qo'rg'ontepa tumanida - 183 ta., Izboskan tumanida - 179 ta. Oltinko'l, Marhamat, Paxtaobod va Baliqchi tumanlarida bu ko'rsatkich 175–125 ta ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ulugnor (21,9 birlik), Andijon sh, (18,8 birlik), Xodjaobod (14,4 birlik), va Bo'z (14,8 birlik) tumanlariga to'g'ri keladi.


O'rtacha ko'rsatkich oraliq'ida 13,0-11,3 birlik Marhamat Altinkul, Kurgontepa, Jalakuduk, Baliqchi, Asaka. Andijon (9,6 birlikda), Pahtaobod (9,3 birlikda), , Honobod (8,4 birlikda), Buloqboshi (8,0 birlikda) va Shahrixon (8,0 birlikda), Izboskan (7,2 birlikda) ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2018 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik




Agar, 2017 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,7 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 11,9 birlikka yetdi va 2017 yilga nisbatan 0,2 birlikka ko'paydi.

**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga.**




Quyida, 2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 19,8 %, qurilishda - 96,4 %, investitsiyada - 53,8 %, savdoda - 88,8 %, eksportda - 74,1 %, importda - 16,4 % va xizmatlar sohasidagi - 71,7 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

**2018 yilning yanvar-sentyabrida iqtisodiy faoliyat turlarida
kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi**




2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 73,4% ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-dekabrida 79,9 %). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

**Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar-dekabr holatiga, %**



**Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan % da)**



**2018 yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmat	Investitsiya
Andijon viloyati	19,8	96,4	71,7	53,8
Andijon shahar	26,2	94,4	47,8	38,4
Xonobod shahar	14,0	100,0	95,2	42,6
<i>Tumanlar:</i>				
Andijon	81,2	100,0	84,9	48,8
Asaka	2,1	100,0	94,4	43,6
Baliqchi	87,3	100,0	95,7	65,6
Bo'z	63,5	100,0	95,7	55,3
Buloqboshi	100,0	100,0	90,4	53,2
Jalaquduq	59,2	77,5	92,7	61,4
Izboskan	65,2	100,0	95,8	73,4
Ulug'nor	51,0	72,0	83,7	44,6
Marhamat	77,2	100,0	97,6	56,8
Oltinko'l	89,5	100,0	95,0	66,0
Paxtaobod	99,9	100,0	96,7	60,5
Xo'jaobod	78,1	100,0	95,8	61,0
Shahrixon	91,5	100,0	92,6	74,4
Qo'rg'ontepa	72,3	95,3	95,8	81,9

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Buloqboshi tumani (100.0 %), Paxtaobod (99,9 %) va Oltinko'l (89,5 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Andijon, Asaka, Baliqchi, Bo'z, Buloqboshi, Izboskan, Marhamat, Oltinko'l, Paxtaobod, Xo'jaobod, Shahrixon tumanlari va Xonobod shahri (100.0%) Qo'rg'ontepa (95,3 %), Andijon shahri (94,4 %) Jalaquduq (77,5 %), Ulug'nor (72,0%) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qo'rg'ontepa (81,9 %), Shahrixon (74,4 %), Izboskan (73,4 %), Oltinko'l (66,0 %), Baliqchi (65,6 %), Jalaquduq (61,4 %), va Xo'jaobod (61,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan



2018 yilning yanvar-dekabrida



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 5349,3 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 19,8 %) yoki 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 106,9 % ni tashkil qildi;

2180,9mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 53,8 %) o'zlashtirildi va 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 118,2%ni tashkil qildi;



2354,5mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 96,4 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 107,1%ni tashkil qildi;

7979,8mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyatning jami xizmatlar hajmining 100,0%), 2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5%ni tashkil qildi;



chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 88,8 % yoki 9245,9 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 103,6%ni tashkil qildi) shakllantirildi;

252,2mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 74,1%) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 28,5 mln. AQSH dollariga yoki 112,7%ga ko'p;




avtomobil transporti yuk aylanmasining 115,6%ga (viloyatning jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 103,9 %) ko'payishi ta'minlanadi;

yo'lovchi aylanmasining esa 103,3%ga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 103,0%) ko'payishi ta'minlandi.




Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Paxtaobod, Marhamat, Qo'rg'ontepa, Ulug'nor, Buloqboshi, Bo'z, Baliqchi, Andijon, Oltinko'l – 100% , X o ' j a o b o d – 92,8% , Izboskan - 59,0% , Jalaquduq - 26,2% , Andijon.sh - 14,8% , Asaka - 12,3% tumanlari va eng past ko'rsatkichni Xonobod shahri - 1,5% ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (1108,2 mlrd.so'm), Shaxrihon tuman (615,7 mlrd.so'm), Andijon (507,9 mlrd.so'm), va Oltinko'l (410,6 mlrd.so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Paxtaobod (156,3 mlrd.so'm), Xonobod (132,0 mlrd.so'm), Bo'z (74,8 mlrd.so'm) va Ulug'nor (59,9 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab




**2018 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat maxsulotidagi
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Asaka tumani (63,3%), Andijon shahri (15,7%) va Xonobod shahriga to'g'ri kelmoqda (3,5%), Shahrihon tumani (2,5%), Andijon tumani (2,3%), Xo'jaobod tumani (1,8%) va Oltinko'l (1,7%), Ulug'nor (0,4 %) va Bo'z (0,4 %) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda


2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (2445,6 mlrd.so'm), Shaxrihon (1414,8 mlrd.so'm), Asaka (934,3 mlrd.so'm), Kurgontepa (895,7 mlrd.so'm) va Andijon (538,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2018 yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (843.1 mlrd.so'm), Shahrixon tumani (215,4 mlrd.so'm), Andijon tumani (191,5 mlrd.so'm), Oltinko'l tumani (182,7 mlrd.so'm) va Izboskan (125,6 mlrd so'm) tumanlarda qayd etildi.




2018 yil yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Andijon shahri (1816,0 mlrd.so'm), Asaka tumani (478,3 mlrd.so'm) va Shahrixon tumani (461,9 mlrd.so'm), Andijon (367,0 mlrd.so'm) va Qo'rg'ontepa (329,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil IV - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 94 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 28 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 29,8 %), qurilish - 11 (11,7%), savdo - 33 (35,1 %), xizmatlar sohasi - 14 (14,9 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 8 (8,5 %) tashkil etdi.

**2018 yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Andijon shahrida - 28,8 %, Asaka tumanida - 13,8 %, Izboskan tumanida - 10,0 %, Oltinko'l tumanida - 7,5 %, Baliqchi tumanida - 6,3 %. Jalaquduq - 5,0% Marhamat va Paxtaobod tumanlarining ulushi 3,8 %ni tashkil qildi.

2018 yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlik




2018 yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 45,4 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 36,4 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 37,5 % va 54,2 %, xizmatlar sohasida – 30,5 % va 39,1 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 14,3 % va 71,4 %, sanoatda – 21,4 % va 50,0 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 28,6 %, qurilishda – 18,2 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 14,2 %, xizmatlarda – 30,4 % va savdoda – 8,3 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil IV–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 82,1 % sanoat korxonalari, 83,3 % – savdo, 82,6 % – xizmatlar, 85,7 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 72,7 % – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: A.Ikromov

Tel.: (0371) 230-82-54,